

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2011-yil
28-fevral
N:9
(66810)

ISSN – 2010-6092

Sirdaryo viloyatiga bag'ishlangan

MAXSUS SON

SIRDARYOLIK BOLALARGA SOVG'AMIZ BOR!

Zukko, aqli, ziyrak bolalar, xabaringiz bor, «Barkamol avlod yili» munosabati bilan barcha viloyatlarga bag'ishlangan maxsus sonlar tayyorlashni yo'lga qo'ygan edik. 2010-yil xuddi shu kunlarda xorazmlik tengdoshlaringiz hayotini aks ettirgan gazeta bilan tanishdingiz. Undan so'ng Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent shahri hamda viloyati, Jizzax viloyati o'quvchilari uchun maxsus sonlarni tayyorladik.

Bugun...

Sirdaryolik tengdoshlaringiz hayotidan hikoya qiluvchi maxsus son qo'lingizga tegdi. Yangi tanishlar ortirdingiz. Ular yashayotgan voqea tarixi, maktablar hayoti bilan tanishdingiz, shuningdek, ijodlaridan bahramand bo'ldingiz. Bu yaxshi-da! Bor bo'ling, hamkorlik qiling, shu yurt, shu aziz Vatanning chin insonlari, vatanparvar, sodiq farzandlari bo'ling, deymiz. Ezgulik, yaxshilik insonni baxt-saodatga yetaklaydi. Bu yo'lda biz ham sizga ko'mak berishga oshiqyapmiz.

(Davomi 2-betda)

Guliston shahridagi 12-maktab o'quvchisi Nargiza ODILOVA
«Tong yulduzi» gazetasining faol o'quvchilaridan biri.
U bu yil ham gazetaga birinchilardan bo'lib obuna bo'ldi.



SIRDARYOLIK BOLALARGA SOVQ'AMIZ BOR!



Tahririyatda xizmat qila yotgan xodimlarning mehnatlarini ham qadrlashingizni istaymiz. Zero, bolalar jurnalisti bo'lish juda og'ir, lekin sharafligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

markazlari bo'lgan. Ular parkonaliklar va so'g'diylar bilan mustahkam savdo-sotiq va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yganlar. «Buyuk ipak yo'li» o'tgan Sirdaryo hududida barpo etilgan ichimlik suvlari saqlanadigan inshoot – sardobalar uzoq yo'l yurib kelgan karvonlar changog'ini bosib, jonlariga oro kirgan. Tarixiy manbaalar Sirdaryo bo'ylariga qadimda

Jahongir fothihlar va o'zga yurt podshohlari qo'shin tortib kelganliklarini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi 328-yilda

Sirdaryo bo'ylaridan yordamga borgan 600 suvoriy So'g'd o'g'loni Spitamen lashkarlari bilan birga Menedem qo'shinini Zarafshon bo'yida tor-mor keltiradi.

Temuriylar davrida, ya'ni XV asrdayoq Temuriy hukmdorlardan bo'lgan bobomiz Mirzo Ulug'bek tomonidan Sirdaryo suvini Mirzacho'lga anhor orqali chiqarilgani, shu hududga ko'plab obodonchilik ishlari amalga oshirilgani haqida ma'lumotlar bor.

Mustaqillik yillarida viloyatda madaniyat, ma'rifat, san'at, qo'ying-chi, barcha jabhalarda jadal o'zgarishlar kuzatilyapti. 240 ta kutubxona, 133 ta ma'rifat xonalari, 14 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, viloyat musiqali drama teatri, xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar markazi, Guliston san'at bilim yurti va ko'plab madaniyat bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyat markazida mahobatli «Alpomish» sport majmuasi, qator-qator ma'muriy-xo'jalik va maishiy xizmat binolari, yuzlab dehqon-fermer xo'jaliklari, salomatlik maskanlari, istirohat bog'lari va maydonlari, zamonaviy suzish havzalari, jahon andozalari talablariga javob beradigan keng va ravon yo'llar, ko'plab bank muassasalari, savdo markazlari xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda.

Ma'muriy chegarasi bir million gektardan ortiq bu maydonni Mirzacho'l tekisligi, ba'zan esa Mirzacho'l uchburchagi, deb ataydilar. Mazkur hudud bepoyon Sirdaryoning so'l sohilida, daryoning o'rta oqimida joylashgan: uzunligi shimoldan janubga 160 km, sharqdan g'arbga esa 130 kilometr ga teng. Umumiy maydoni 5100 kv. kilometr ga teng. Viloyat 1963-yil, 16-fevralda tashkil topgan.

Bolalar, o'zingiz guvohi bo'lganingizdek, nafaqat Guliston, balki Samarqand, Andijon, Qarshi, Termiz va boshqa shaharlarimizning qiyofasi tubdan o'zgardi. Istiqolol bizga ana shunday imkoniyatlarni bermoqda. Eng muhimi, Siz, aziz bolalar, bu imkoniyatlardan o'rnida foydalanib, kelajagingizni komil sohiblari bo'lishingizni xohlaymiz. Prezident bobongiz aytganlaridek, Siz O'zbekistonning barkamol avlodsiz. Vatan Sizga ishonadi, suyanadi va siz bilan haqli ravishda faxrlanadi. Gazetaning ushbu soni sirdaryolik bolalar uchun yaxshigina sovg'a bo'ladi, desak yangilishmaymiz. Viloyatda iste'dodli o'quvchilar juda ko'p. Ular haqida keyingi sonlarda ham hikoya qilib boramiz. O'z navbatida Sizdan, albatta, gazetaning mazkur soni haqidagi fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

TAHRIRIYAT

Suratlar muallifi Feruza ADILOVA

Sirdaryo viloyati haqida yaxshi bilasiz. Guliston shahri uning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi sanaladi. Shahar dengiz sathidan 276 metr balandlikda, shimoliy Mirzacho'l kanali sohilida joylashgan. Qadimda Sirdaryo bo'ylarida Nurtepa, Qayroqqum, Qovunchi, Jetiasar kabi madaniyat



TA'LIM MASKANLARIDA

Sirdaryo viloyatida bugungi kunda 303 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari bo'lib, ularda tahsil olayotgan 177501 nafar o'quvchiga 9475 nafar o'qituvchi-muallimlar ta'lim-tarbiya bermoqdalar.

biologiya fanidan, 32 ta maktab kimyo fanidan zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan.

206 ta maktabda kompyuter xonalari mavjud.

O'tgan yili Buxoroda bo'lib o'tgan «Elektron axborot ta'lim resurslari» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida Guliston shahridagi 8-maktabning 9-sinf o'quvchisi B.Abduxalilov 1-o'rin, viloyat xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi F.Karimov 2-o'rin, o'qituvchilar o'rtasida Xovos tumanidagi 9-umumta'lim maktabining «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» fani o'qituvchisi O'sar Zokirov faxrlil 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.

Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 27 ta Axborot resurs markazlarining kitob fondini boyitish maqsadida «Maktab-kutubxona-oila-jamiyat tashkilotlari» xayriya marafoni tashkil qilindi va Axborot-resurs markazlari 1650 nomdagi ilmiy-ommabop, siyosiy-ijtimoiy adabiyotlar hamda har bir ARM 1600 donadan elektron badiiy adabiyotlar bilan ta'minlandi.

Nosirjon EGAMBERDIYEV,
Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi
Boshqarmasi boshlig'i

O'qituvchilarning 449 nafari oliy, 1605 nafari birinchi, 3881 nafari ikkinchi toifa malakasiga ega bo'lib, 3540 nafari mutaxassislardir.

175 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 13925 nafar kichkintoy tarbiyalanmoqda. 140 tasi zamonaviy, 35 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan muassasalarda 130 ta musiqa, 40 ta sport zallari, 110 ta ochiq suzish havzasi, 163 ta sport maydonchalari mavjud.

23 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida to'rt yo'nalishda 416 ta to'garak faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 16918 nafar o'quvchi qamrab olingan.

Viloyatda 14 ta sport maktabi va 14 ta musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda. Viloyatdagi 303 ta umumta'lim maktablaridan 240 tasi «ZiyoNET» tarmog'iga ulangan.

2004-2009-yillar mobaynida viloyatdagi 321 ta maktab fizika fanidan, 181 ta maktab kimyo va

SAN'AT DARGOHLARIDA

Sirdaryolik o'quvchilar orasida musiqa va san'atga ixlosmandlari ham talaygina. Ularning milliy cholg'u asboblari ijro etgan kuylarini maroq bilan tingladik. Viloyat xalq ta'limi tizimidagi bolalar musiqa va san'at bo'linmasi mudiri Elyor G'afforov musiqa va san'at maktablari haqida quyidagilarni gapirib berdi.

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyulidagi «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilashga mo'ljallangan Davlat dasturi» ijrosini ta'minlash maqsadida o'tgan yil viloyatimizda



Guliston shahar 2-Bolalar musiqa va san'at maktabi qurib, foydalanishga topshirildi. Boyovut tumanidagi 5-Bolalar musiqa va san'at maktabi esa kapital-rekonstruksiya qilindi. Guliston shahar 2-Bolalar musiqa va san'at maktabi Mustaqilligimizning 19 yilligi bayrami arafasida foydalanishga topshirildi.

Hozirgi kunda maktabda 120 nafar o'quvchilar san'at sirlarini o'rganishmoqda. O'tgan yili yangi «Urib va puflab chalinadigan asboblari» hamda «Xalq cholg'u sozlari» bo'limlari ochilib, ularda tahsil olayotgan o'quvchilarga 9 nafar pedagog saboq berib kelyapti. Shuningdek, Sardoba tumanidagi 9-Bolalar musiqa va san'at maktabi ham kapital rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Unda yangi «Estrada xonandligi» bo'limi ochildi.

O'z ish rejalarim haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsam, joriy yilda viloyat xalq ta'limi tizimidagi Bolalar musiqa va san'at maktablarining markazlashgan bolalar galereyasini tuzishni, xalq milliy raqs va milliy qo'shiqchilik guruhlarini tuzib, ularni jahon sahnalariga chiqarishni rejalashtirganimiz. Kelajakda bunday san'at dargohlarida tahsil olgan yoshlarimizni ma'nan barkamol insonlar bo'lib ulg'ayishlariga ishonamiz.

Yangiyer viloyatning eng ko'rkam, obod shaharlaridan biri. Safarimiz davomida ana shu so'lim go'shada bo'lib, bolajonlarning qiziqish va intilishlari bilan tanishdik.

Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahar o'quvchilar ijodiyot markazida o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarida qatnashdik. «Mohir qo'llar» to'garagi qatnashchilari o'z qo'llari bilan yasagan yumshoq o'yinchoqlariga, «Zardo'zlik» to'garagi qizlarining milliy kashtalariga, «Tasviriy san'at» to'garagining yosh rassomlari chizgan rasmlarga havasimiz keldi. Markaz rahbari Natalya Astafurova biz bilan suhbatda quyidagilarni gapirib berdi:

– Markazimizda faoliyat ko'rsatayotgan 24 ta to'garakka 1100 dan ziyod o'quvchilar jalb etilgan. Mashg'ulot jarayoni o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Zardo'z qizlarimizga «Tasviriy san'at» to'garagidagi ijodkor o'quvchilarimiz rasmlar chizib berishadi. Yumshoq o'yinchoqlar yasaydigan qizlarimiz qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoqlar yasashadi. Bu usulimiz o'z samarasini berdi. Ayniqsa, duradgor, chevar o'quvchilarimiz hamma ishlarimizga ko'maklashadilar. Viloyat miqyosida o'tkazilgan «Ijodkor bolalar» ko'rik-tanlovida o'quvchilarimiz g'oliblikni qo'lga kiritdilar. O'z kasbining ustasi, tajribali ustoz Natalya opaning ish uslubini respublikamizdagi barcha hamkasblariga o'mak qilsak arziydi.

IBRAT QILSAK ARZIYDI



BOLALAR

Zahiriddin Xolmatov Yangiyer shahridagi 3-maktabning 7-sinfida o'qiydi. 5-sinfdan buyon tarix fanini astoydil o'rganib, bu fanning bilimdoni bo'lib qolgandi. Ustozlaridan olgan puxta bilimlari qo'l kelib, shahar miqyosida o'tkazilgan fanlar olimpiadasining tarix fani bo'yicha g'olibi bo'ldi.

Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 27-«Mehribonlik uyi» negizida ikki yil avval «Bolalar shaharchasi» tashkil topdi. Unda har bir oilada 7-10 nafar bola tarbiyalanishiga mo'ljallangan 10 ta uy-kotejlar qad rostladi. Shaharchaning umumiy yer maydoni 4,2 gektarni tashkil qilib, oila-uylari atrofiga 1000 tup archa ko'chatlari ekildi.



Tarbiyalanuvchilarni mehnatga o'rgatish, ularni meva va sabzavot mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash maqsadida, qariyb bir gektar yer maydonida «Mehrjon bog'i» tashkil etildi. Zamon talablariga javob beradigan futbol, voleybol va basketbol maydonchalari mavjud. Qariyb 0,9 gektar yer maydonini egallaydigan sport maydonida tarbiyalanuvchilarning 30 foizini maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar tashkil qilgani bois, ular uchun arg'imchoqlar, sport jihozlari, qumli maydonchasi bo'lgan «O'yin shaharchasi» tashkil etildi. Madaniy va ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun shaharchada amfiteatr qurildi. Amfiteatr aylana shaklida qurilgan bo'lib, unda kichik sahna va 200 kishilik o'rindiqlar joylashgan.

Shaharcha markazidagi «Hayot yo'li» me'moriy kompozitsiyasi 50 metr uzunlikdagi «Hayot yo'li» nomli rasmi hamda «Oqqush» haykalidan iborat.

Bugungi kunda «Bolalar shaharchasi»da 72 nafar o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda.

Ular 15 ta to'garak va sport seksiyalariga a'zolar. Maqsadimiz, bilimdon va sog'lom avlodni kamol toptirish.

Pokiza AHMADJONOVA,
«Bolalar shaharchasi» rahbari



TARIX FANINI YAXSHI KO'RAMAN

– Maktabimizda tarix muzeyi ochildi. U yerda odamzodning paydo bo'lishidan tortib, to hozirgi kunga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumotlar yig'ilgan, – deydi u biz bilan suhbat chog'ida. – Muzeydan turli davrlarga tegishli mehnat va ov qurollari, aslahalar, qilich va sopol buyumlar, o'rta asrga oid kiyim-kechaklar, ayollarning turfa xil taqinchoqlari ham joy olgan. Zero, ajdodlarimiz tarixi bizning milliy va madaniy merosimizdir. O'z xalqi, Vatani ravnaqi uchun jonini fido etgan ulug' bobolarimiz haqidagi ma'lumotlar biz yoshlarni ham ezgulikka, el-u yurtning komil farzandlari bo'lishga undaydi...

Hali yosh bo'lishiga qaramay, o'y-fikrlari teran, bilimga chanqoq bu tengdoshingizga orzu-maqsadlariga yetishishi uchun oq yo'l tiladik.

SIRDARYO SHOMI

Ufqqacha cho'zilib ketgan daryo o'zani, shom sukunatida ohista chayqalib, suv yuzasida goh ko'rinib, goh ko'rinnmay mavjlanayotgan to'lqinlar... Ko'kda esa ufqqa asta bosh qo'yayotgan quyoshning qizg'ish nurlari, parq-u bulutlarda ajib rangtasvir hosil qilgan.

Bunday ajib manzaralarni viloyat xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi Muqaddas Mamatkarimovanning



«Sirdaryo shomi» nomli kartinasida kuzatib, o'zingizni azim daryo sohilida turganday his qilasiz, go'yo... «Sirdaryo shomi» – bu musavvir tabiatning betakror ijodi. Tabiat go'zalligini qalbiga jo qilib, turfa ranglar yordamida uni haqqoniy tasvirlab bera olgan mo'yqalam sohibasining iste'dodiga tasanno!

Tasviriy san'atga mehr qo'ygan Muqaddas bo'sh vaqtlarini rassomchilik sirlarini o'rganishga sarflaydi.



Natijalar ham, albatta, shunga yarasha.

U «Kumush qish» rasmlar ko'rik-tanlovida 1-o'rin, «OITSGa qarshi kurash» mavzusidagi ko'rik-tanlovda oliy o'rin sohibasi bo'ldi.

«Sirdaryoning yosh iftixori» ko'rik-tanlovida rangtasvir yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni, yosh rassomlarning «Tasviriy san'at+5» haftaligida Respublika ijodkorlar akademiyasi tomonidan «Faxriy yorliq» hamda kumush medal bilan taqdirlandi. «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotiga nomzod sifatida shahar bosqichida qatnashib, san'at yo'nalishi bo'yicha 2-o'rinni egalladi. Hozirgi kunda Chexiyada bo'lib o'tadigan «Lidets – 2011» xalqaro tanloviga tayyorgarlik ko'rayotgan iqtidorli qizimizga biz ham omadlar tiladik.



Qizlarning dil daftari

Biz Guliston shahridagi 1-maktabda tahsil olamiz. «Tong yulduzi» gazetasi, ayniqsa, «Qizlar akademiyasi» sahifasini katta qiziqish bilan o'qiyamiz. Dilnoza Mahkamova, Gulandom Ziyodullayeva, Hilola Ibrohimova, Dilnoza Abduqodirova kabi tengdosh dugonalarim maktablarida qizlarning odob-axloqi, ibosi-yu hayosi haqida o'rinni fikrlar bildiriladi. Bizning maktabimizda ham har sohada namuna bo'ladigan qizlar talaygina. Ular a'lo baholarga o'qishlaridan tashqari, rus tili, ingliz tilini ham mukammal egallashga harakat qilishadi. O'z qo'llari bilan tikkan kashtalari-yu munchoqlar bilan bezatilgan so'zanalari, ro'molchalari-yu sumkachalari barchaning diqqatini tortadi. Ana shu chevar, pazanda, aqlli qizlarimizning respublikamizga gazetangiz orqali tanilishlarini xohlar edik.

Kamola SANAYEVA

DINORA RAQS TUSHGANDA...

Sahnada ko'ngillarni zavqqa to'ldirib quymoq musiqa ohangi taralardi. Sahna o'rtasida esa musiqa sadosiga hamohang «Erkatoy qiz» raqsi ijro etilmogda. Qizaloqning yengil va chaqqon harakatlari mahliyo bo'lib qolgan tomoshabinlar raqs tugagandan keyin ham bir fursat jum qolishdi, so'ngra zalni olqish va qarsaklar ovozi tutdi...

Endigina 12 yoshga qadam qo'ygan raqqosa Dinora Do'stmurodova juda iste'dodli, mehnatsevar qiz.

U Boyovut tumanidagi 1-ixtisoslashgan maktab-internatining 6-sinfida o'qiydi. Uch yil avval Namangan viloyatida o'tkazilgan «Milliy raqs» festivalining respublika bosqichida qatnashib, faxrii 3-o'rinni egallagan, viloyat «Kamolot» YO'JI tomonidan o'tkazilgan «Iste'dodli bolalar» ko'rik-tanlovida «Iqtidorli o'quvchi» nominatsiyasi g'olibi bo'lgandi. Turli tadbirlarda o'z raqslari bilan faol ishtirok etib, ustozlari e'tiborini qozongan Dinora o'tgan yili «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichi g'olibasi deya e'tirof etildi.



NOZIK BARMOQLAR

Sirdaryo tumanidagi ko'rkam musiqa va san'at maktabi hovlisida, kumush qishning tarovatiga hamohang ajib musiqa taralmoqda. Fortepyanoda ijro tinglovchining xotirala-bolalikning shirin dam-ijrohilari dunyoga mashhur Shopen yoki Motsart emas, balki yosh bo'lishlariga qaramay, musiqa va san'atga mehr qo'ygan iste'dodli qizaloqlar. Ular orzulari buloq suviday zilol – Zilola, intilishlari tog'lardek ulkan – Diyora Usmonovalar. Nozik barmoqlari bilan musiqa olamidagi sehrli va muhtasham saroylarning zalvorli eshiklarini ochishga chog'langan bu opa-singillar ustozlaridan saboq olib, mohir sozanda bo'lib yetishsalar, ajabmas.



etilayotgan bu yoqimli kuy rini jonlantirib, beg'uborlarini yodga soladi. Musiqa

Mustaqillik sharofati bilan dunyoga yuz tutgan bu ozod yurtida orzularga yetishmoq uchun barcha sharoitlar muhayyo. Faqat ozgina intilish, xohish va maqsad sari dadil odimlansa, bas...

Bolalik chog'idanoq san'atga, musiqa mehri tushgan bu qizaloqlar san'atsevar xalqimiz nomini yana bir bor butun olamga mashhur qilsalar, ne ajab?!

SEHRI



Uning repertuari boy va rang-barang. «Erkatoy qiz», «Doira raqsi», «Surxoncha», «Qo'g'irchoq», «Tanovar» kabi raqslari bilan bayram va tantanalarga faiz kiritib kelayapti.

Kelajakda raqqosalarning ustozlari, soha tili bilan aytganda, baletmeyster bo'lmogchi.

San'at bog'idan xushbo'y va rango-rang raqs guldastasini saralayotgan Dinoraxondan bizning ham umidimiz katta.



Jo'rabek Mamatqulov 8-sinf o'quvchisi. Izlanuvchanligi, tirishqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. To'qqiz yoshidan kompyuterga qiziqib qolgan Jo'rabek ayni damda bu texnika mo'jizasining imkoniyatlari borasida puxta bilimga ega bo'lib ulgurdi. Ustozi Rustam aka Eshonqulov yosh shogirdining bu boradagi yutuqlaridan mamnun. O'z navbatida Jo'rabek ham ustozining ishonchini oqlash uchun astoydil harakat qilmoqda. Uning yagona orzusi bu sohada yetuk mutaxassis bo'lib, yanada kengroq imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi rusumdagi kompyuter ixtiro qilish. Texnika ixlosmandi bo'lgan do'stingizning ko'zlagan maqsadlariga erishishiga ishonchimiz komil.

USTOZ ISHONCHIN OQLAB...

Viloyat bolalar ijodiyot markazida 37 ta to'garak faoliyat yuritadi. U yerdagi 151 ta guruhga 1695 nafar o'quvchi doimiy qatnashib kelmoqda. Bu maskanda yoshlarning kasb-kunar egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Viloyatda o'tkazilgan «Ijodkor bolalar» ko'rik-tanlovida raqs, tasviriy san'at, zardo'zlik, duradgorlik kabi to'garaklarga qatnashuvchi bolalar g'oliblikni qo'lga kiritishdi. 2010-yilda o'tkazilgan «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivalida «Yosh maqomchilar» ansambli a'zolari faxrli ikkinchi o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqladilar.

KO'KLAM IFORI

Dilshodjon Karimov Guliston shahridagi 2-musiqqa maktabining iqtidorli o'quvchilaridan biri. U rubob, prima cholg'u asbobida «Navro'z ifori», «Dilxiroj», «Bahor valsi» kuylarini maromiga yetkazib ijro etadi. Ustozi Sulton aka Alimovning aytishicha, Dilshodjon o'z ustida juda ko'p ishlar ekan. Uning musiqani his qilish qobiliyati yuqori bo'lganligi uchun ijro etgan kuylari tinglovchilarning yuragiga yetib boradi. Kuylari bahor iforidagi yoqimli va tarovatli.




«OY VA YULDUZLAR» BOSHQOTIRMASI

Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Gulsara AHROROVA gazetamizning eng faol muxbirlaridan sanaladi. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, boshqotirmalar, krossvordlar tuzib, gazetamizga yo'llaydi va bu orqali o'quvchilar bilimini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ularni hozirjavob, zukko bo'lishga undaydi.

Quyida ustozning oy va yulduzlar shaklidagi boshqotirmasini e'tiboringizga havola qilyapmiz.

Alifbodagi harflarning joylashish tartib raqamidan foydalanib, oy yordamida so'zlar hosil qiling.





1-Mart – Zulfiya tavallud topgan kun

YANA BAHOR KELDII...

(Badia)

Sindi qish to'qigan muz hisli qafas,
Mana yana qushlar chug'urlab qoldi.
Ona nigohiday muloyim nafas,
Zamin-u osmonni bag'riga oldi.
Demak, bahor keldi..

Har gal qahraton qishning ayozli kunlari asta-sekin chekinib, ko'm-ko'k maysalar bosh ko'tarib, zamin-u osmonni o'z bag'riga olgan go'zal ko'klamning iliq nafasi taralgan chog'larda, bahor va baxt kuychisi, o'zbek she'riyatining taniqli namoyandasi shoira Zulfiyani yodga olamiz.

Sevimli shoirimiz o'zining sermazzun hayoti davomida ko'pgina lirik she'riy to'plamlar yaratish bilan bir qatorda, bolalarga bag'ishlangan turkum she'rilar yozib, «Lolaqizg'aldoq» nomi bilan chop ettirgan. Shuningdek, N.A.Nekrasov, M.YU.Lermontov kabi rus shoirlarining she'rilarini, M.Dilboziy, A.P.Pritan kabi adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, kitobxonlarga hadya etgan serqirra ijodkor edi.

Shoiraning o'zi aytganiday, shafaq nuri qo'lidan tutgan, el dardi, deb o'z dardini unutgan matonatli va sadoqatli o'zbek shoirasi Zulfiyaxonimning nomi avlodlar qalbida mangu yashaydi.

Nilufar RAHIMBOYEVA,
Yangiyer shahridagi 9-maktab o'quvchisi



O'ZBEKISTONIM

Buyuk O'zbekistonim,
Jon-u jahonim mening.
Cho'ng taxti Sulaymonim,
Mangu oshyonim mening.
Jonni fido qilgulik
Jannatmakonim mening,
Olam sirin bilgulik
Ilm-u urfonim mening.

Bunda Temur shuhrati,
Ulug'bek yulduzlari,
Buxoriy hadisleri,
Mir Alisher so'zlari.
Ko'zlarimga to'tiyo
Al-Xorazmiy izlari,
O'zbekistonim mening,
Jon-u jahonim mening.

Men Vatan tuprog'ida,
U mening ardog'imda,
Men Vatan quchog'ida,
U mening qarog'imda,
O'zbekistonim mening,
Jon-u jahonim mening.

Toshkentim kundan-kunga
Chiroy ochib yashnaydi.
Mukarrama qizlari
«Tanovar»ni boshlaydi,
O'zbekistonim mening,
Jon-u jahonim mening.

Bag'ri keng insonlarga,
Makon chamanim mening.
Bolalari baxtiyor,
Ozod Vatanim mening.
Olloh nazari tushgan,
Obod ma'manim mening.
O'zbekistonim mening,
Jon-u jahonim mening.

'Ma'man – tinch joy.

Mirza QAYNAROV,
Sardoba tumani



«NIHOL» JO'GARAGI

Maktabimizda «Nihol» adabiyot to'garagi faoliyat ko'rsatadi. Mashg'ulotlarni adabiyot o'qituvchimiz Shuhrat aka Hakimov olib boradilar. Men badiiy ijodga juda qiziqaman. Shuhrat akadan she'riyatning o'ziga xos qonun-qoidalarini o'rganib borishga harakat qilmoqdaman. Kelajakda Zulfiyaxonimning munosib izdoshlaridan biri bo'lishni orzu qilaman. Tengdoshlarim e'tiboriga bir juft she'rimni havola etmoqchiman:

QALDIRG'OCH

Qaldirg'ochim, qaldirg'och
Bizning uyga in qurgin.
Uyangda bola ochib,
Ayvonchada charx urgin.

Jonajon palaponlaring,
Sho'xligin hech qo'ymaydi.
Zavqim oshib ularga,
Qarab ko'zim to'ymaydi.

SUMALAK

Erta bahor momolar,
Pishirishar sumalak.
Shu kuni go'yo ko'kdan,
Tushadi yetti malak.

Bolalar bolday shirin
Sumalakni yalashar.
Pazanda momolarga,
Uzoq umr tilashar.

Dilshoda EGAMBERDIYEVA,
Boyovut tumanidagi
14-maktabning
7-sinf o'quvchisi



DUGONAM

Dugonam bor Nigina,
Yo'qdir ko'nglida gina.
Mo'ldir uning orzusi,
Aql uning ko'zgusi.

O'qiydi juda a'lo,
Yuzida doim ibo.
O'zi juda ham dildor,
Qalbida yashnar bahor.

Tilayin unga omad,
Kulib boqsin doim baxt.
Suhbat qurib o'tirsak,
Mazmunli o'tadi vaqt.

QALBIM MENING
BEG'UBOR OSMON

Yuragimda suzmoqda bulut,
Qalbm mening beg'ubor osmon.
Meni o'zi etib mahliyo,
Yong'ir bo'lar, sel bo'lar ummon.

Mayin shamol yuzim silaydi,
Onam qo'lidayin muloyim.
Menga go'yo omad tilaydi:
«Baxt, iqbolga to'lgin iloyim».

Yoz yong'iri asta tomchilab,
Yuraklarning g'uborin yuvar.
Zar zaminni bag'riga bosib,
Bulutlarni darbadar quvar.

Nodira XUDOYNAZAROVA,
Boyovut tumanidagi
1-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

5 KARRA CHEMPION QIZ



16-maktabning 9-sinfida o'qiydigan Nasiba Sharijova Gulistondagi «Bolalar shaharchasi» tarbiyalanuvchisi.

Jussasi kichkinagina bu qizni besh karra O'zbekiston chempioni deganlarida, avvaliga ishongimiz kelmadi. Uning bajarayotgan mashqlarini ko'rgach, ishonch hosil qildik. Ustoz Dilrom opa Rahimova unga qo'llar orqali kuch sinash san'atini o'rgatib kelmoqda. Nasiba sportning armrestling turi bo'yicha 2010-yilda yoshlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida II o'rinni egalladi. Avval ham O'zbekiston miqyosida II va III o'rinlarga sazovor bo'lgan edi. Kullas, Nasibaga O'zbekistonning besh karra chempioni bo'lish nasib etdi. Ustozining aytishicha, u boshqa shogirdlaridan sabrtiligi va chidamliligi bilan ajralib turar ekan. Faqat sport bilan shug'ullanibgina qolmay, barcha fanlardan a'lo bahoga o'qiydi. Nasiba a'lo baholari hamda sportdagi g'alabalari bilan Vatanimiz sharafini ko'klarga ko'tarish niyatida.

O'quvchi-yoshlarning barkamol inson bo'lib voyaga yetishlarida jismoniy tarbiyaning o'rmi beqiyos. Bu borada Guliston shahar xalq ta'limi bo'limi va BO'SM (Bolalar va o'smirlar sport maktabi) tomonidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda. Turli sport musobaqalari o'tkazish bu yerda yaxshi an'anaga aylangan. Futbol, yengil atletika, qo'l to'pi, basketbol, voleybol, stol tennis, shaxmat, kurash, sport gimnastikasi va suzish bo'yicha I bosqich musobaqalarda 748 nafar o'quvchi qatnashgan bo'lsa, ulardan 302 nafari qizlar ekanligi yanada e'tibordir. Guliston shahar birinchiligining II bosqichida esa 1440 nafar o'quvchi, shulardan 551 nafari qizlar bellashdilar.

Mazkur ko'rsatkichlar viloyat maktablarida o'quvchi qizlarni sportga jalb etish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilayotganining yorqin namunasidir.



GULISTONLIK SPORTCHILAR



Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Guliston shahar BO'SM ko'plab sport musobaqalarini o'tkazish uchun asosiy maydonga aylandi. Maktab o'quvchilari bu yerda erkin kurash, boks, futbol, voleybol va boshqa sport musobaqalarida shahar va viloyat sharafini munosib himoya etmoqdalar. Bugungi

kunga kelib Guliston shahar BO'SM ko'plab sport ixlosmandlarining nazariga tushgan. Bu yerda o'tkaziladigan ayrim bellashuvlarda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan sport ixlosmandlari ham ishtirok etishadi. Ular shahar, viloyat bahslarida g'olib bo'lish bilan cheklanib qolmay, respublika musobaqalarida ham munosib o'rinlarni egallab kelishmogda. Sport maktabidagi shart-sharoit, fidoyi murabbiylarning olib borayotgan ishlarini ko'rib, dilimizda iliq tuyg'ular uyg'ondi: tez orada ularning shogirdlari ham jahon maydonlarida o'zlarini namoyon etadilar.



Javlonbek sira ham dangasa emas, ishlasa, astoydil ishlaydi. U quyonlarni yaxshi ko'radi. Amakisining quyonlari juda ko'p. Kulrang, ko'k, oq, momiqday mayin, ko'zlari cho'g' kabi qip-qizil uzunquloqlar. Dadasi uning quyon boqishiga ruxsat berganiga ancha bo'lgan bo'lsa-da, bunga imkoniyat yo'q, katakchalar qurish kerak... 7-sinfni tamomlab yozgi ta'ilga chiqqanida, Javlonbek biroz o'ynash uchun qo'shni hovlida yashovchi sinfdoshi Adhamlarnikiga chiqqandi. Aka-uka tomorqa chekkasida loy tayyorlab, ikkita katta-katta gumbaz qilib, ustini hafsala bilan tekislab turishgan ekan.


– Nima qilyapsizlar? – deb so'radi Javlonbek qiziqib. Adham peshonasidagi terni artib: – G'isht quyomqchimiz, hozircha biroz pishib tursa, kechki salqinda bir talay g'isht quyib olamiz, – deya javob berdi. Javlonbekning ham g'ayrati jo'sh urib, uyiga qaytdi.

Qo'liga ketmon olib, hovli chetidan loy uchun tuproq qazish maqsadida joy tanladi. «G'isht quyib, quyonlarga katakcha yasayman», deb xayolidan o'tkazdi u. Ammo bir-ikki ketmon urganda, yer qattiq bo'lganidan barmoqlari zirqiradi. Yumshoq joy qidirib, hovlining poyonidagi ariqcha yaqiniga bordi. Bu ariqchadan dadasi kuni kecha suv keltirib, mevali daraxtlarni sug'organ edi. Ariqchada to'planib qolgan suv endigina qurib, yumshoqqina loyga aylangandi. Javlonbek ketmonini asta loyga botirib ko'rdi. Bir qarichdan chuqurroq joy loydan iborat ekan.

– Ahmoqlar, – dedi u devor osha qo'shni hovliga qarab, – ozgina kallalarini ishlatishganda, terga botib loy tayyorlamay, shundoqqina ariqdan olib qo'ya-qolishardi, axir bizning hovliga suv ularning tomorqasi orqali keladi-ku, – deya kulib qo'ydi. So'ngra, ariqchani uzunligini chamalab

ko'rdi, taxminan 20-25 qadam... Eh-he, qancha g'isht quysa bo'ladi bu loydan...

Yerto'ladan g'isht quyishga mo'ljallangan yog'och qolipni olib chiqib, yaxshilab yuvib tozaladi.



DANGASANING «IXTIRO»SI

Quyoshning tafti pasaygach, yeng shimarib ishga kirishdi. Qolipdan chiqqan yangi g'ishtlar shundoqqina ariq chetidagi marzada saf tortgan askarlarday qator joylasha boshladi. Hash-pash deguncha Javlonbek g'ayrat bilan 200 dan ortiq g'isht quyib qo'ydi. Ikki kundan so'ng qurigan g'ishtlarni bir chekkaga yig'ib, suv ochib, yana g'isht quyaman, qarabsizki, quyonchalar uchun boshpana tayyor, dedi u qilgan ishidan mamnun holda. So'ngra, ish quollarini yerto'laga qo'yib, qo'shni hovliga yugurdi. Adham bilan Ahmad endigina yuztacha g'isht quyib, tinmay qolipga loy urishardi.

– Hormanglar, – dedi u do'stiga kinoya bilan. – Gap bilguncha ish bil, deyishgan bobolarimiz.

Men sizlardan keyin ish boshlab 200 dan ortiq g'isht quydim, sizlar esa hali o'tiribsizlar, lalayib...

Bu gapdan hang-u mang bo'lib qolgan aka-ukalar Javlonbekdan bu ishni qanday eplaganini surishtirishdi. Ammo Javlonbek «ixtiro»sining sirini qo'shnilariga ochishni istamadi. «Kallani ishlatish kerak, sizlarga maslahatim shu, boshqa hech narsa aytmayman», dedi u.

Shom qorong'usida ishdan qaytgan Javlonbekning dadasi o'g'lining ishidan xursand bo'ldi-yu, ammo qayerga va qanday g'isht quyganini surishtirib o'tirmadi. Keyingi ikki kun davomida Javlonbek ariq bo'yiga bormadi. Nima keragi bor, havo juda issiq bo'lsa, ikki kunda g'ishtlar qurib, toshdan ham qattiq bo'lib ketadi.

Ammo uchinchi kuni qurigan g'ishtlarni yig'ib olish uchun ariq bo'yiga yaqinlashgan Javlonbekning hayratdan ko'zlari kattalashib ketdi. Qurigan 200 dan ortiq g'ishtlardan atigi 20 ga yaqini butun bo'lib, qolganlari esa yorilib, mayda bo'laklarga bo'linib yotardi.

U pishmagan loydan sifatli g'isht chiqmasligini xayoliga ham keltirmagan ekan.

Ertasi kuni bu voqeadan xabar topgan Javlonbekning dadasi:

– Nachora, keyingi safar ishni puxta qilarsan, hozir esa bo'linib ketgan g'ishtlarni maydalab, yomg'irdan panaroqqa yig'ib qo'yaqol, har holda biror zaruratga yarab qolar, – deya miyig'ida kulib qo'ydi.

Xullas, dangasaning «ixtiro»si sinovga dosh berolmadi...

Maqsuda SANAYEVA,
O'quvchilar saroyi rahbari

Dunyo yaralgandan buyon ezgulik va yovuzlik o'rtasida jang boradi.

Bu jang-u jadallar to'g'risida minglab afsona va rivoyatlar, doston-u hikoyatlar mavjud. Budda ta'limotida ham, Avesto yodgorliklarida ham, hatto Olimp ma'budalari haqidagi afsona-yu asotirlarda ham ezgulikning yovuzlikka qarshi kurashi haqida turli fikrlar bayon etiladi. Inson bolasi ana shu jang-u jadallar orasida hayot kechiradi, dunyoqarashi shakllanadi, kamol topadi.

Yosh ijodkor Abduqahhor Abubakirov o'zining «Abadiy jang» nomli asarida ayni shu kurash tafsilotlarini yoritishga bel bog'lagan. Yosh bo'lishiga qaramay, tasavvuri juda boy. Iste'dodli tengdoshingiz jang manzarasini yorqin ifodalay



olgan. Unda oppoq qanotli ezgulik farishtalari yovuzlik lashkari hisoblanmish qorong'u zulmat, yovuz afsonanglar hamda qo'rqinchli mahluqlarga qarshi kurashmoqda. Kurash ayovsiz bo'lsa-da, ezgulik farishtalariga ilohiy nur, yorug'lik madadkor. Ammo jang hali davom etyapti.

Mutlaq g'olib yo'q, bu jang tamom bo'lmaydi. U abadiy, toki dunyo bor ekan, davom etaveradi. Qaysi tomonda bo'lish insonning o'ziga, tarbiyasiga, dunyoqarashiga bog'liq. Uchinchi yo'l yo'q.

Abduqahhor 1-sonli san'at maktabida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tahsil oladi. 2010-yil Abduqahhor uchun omadli keldi. U «Bolalik bahori» festivalining shahar va viloyat bosqichida 1-o'rin sohibi bo'ldi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining shahar, viloyat va respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

- Menga tasviriy san'atning natyurmort, manzara va portret



janrlari juda yoqadi. Orzuim, katta rassom bo'lish, - deydi u ishonch bilan.

Uning so'zlaridan qat'iyni, ishtiyoqni sezib, orzulari, albatta, ijobat bo'lishiga biz ham ishonдик.




«MARAFON» KROSSVORDI

BO'YIGA:

1. Paxta o'simligidagi qo'shaloq chanoq.
2. Sayroqi qush nomi.
4. Sovuq qotgan suv.
5. ...-inoq.
7. Dengiz qisqichbaqasi.
8. Mevasiz daraxt turi.
12. Hududiy bo'linma. Obod...
14. Zeb... Yuzga pardoz berish.
15. Boshqirdiston poytaxti.
17. Sayroqi, to'rqovoqdagi qush.
19. Bilim o'chog'i.
20. Bor ...da yo'q ... ertakdagi so'z.
21. ... hunar.
23. ...ni hurmat qiling...
25. Arab harfi.

ENIGA:

3. Mehnatdan keladigan natija.
6. Yaproqlari tikanli, xonaki gul turi.
9. Shaxmat donasi nomi.
10. Uni aktyorlar ijro etadi.
11. O'g'il bola ismi.
13. Yurak, dil.
14. Kiyik.
16. Ommaviy sport turi. Uzoq masofaga yugurish.
22. Xarir, yupqa mato.



24. Pul va qimmatbaho qog'ozlar saqlanadigan bino.

26. Ko'rsatish olmoshi.

27. Undan qatiq tayyorlanadi. Suyuqlik.

28. Sitrus meva turi.

29. Tongda gul yaprog'iga qo'ngan tomchi.

Tuzuvchi: Xisrav XOLNAZAROV,
Yangiyer shahri

BILASIZMI?

Dunyoda eng katta kutubxona AQSH poytaxti Vashingtonda joylashgan. Bu yerdagi Kongress kutubxonasi nafaqat ushbu mam-lakatda, balki jahonda ham eng ulkani hisoblanadi. Uning xazinasida 30 million kitob saqlanadi. Kutubxonada kitoblar va ulardan foydalanayotgan kitobxonlar faoliyati elektron asbob-uskunalardan yordamida nazorat qilinadi.



Xitoylik 26 yoshli Gu Yanglin Xarbin shahridagi 15 mingta telefon raqamlarini yoddan biladi.



Futbol bo'yicha jahon chempionatida eng yosh o'yinchi sifatida maydonga tushgan futbolchi Shimoliy irlandiyalik Norman Vaytsayd hisoblanadi. U 1982-yilda Shimoliy Irlandiyaning Yugoslaviyaga qarshi musabaqasida maydonga tushgan. O'sha paytda Norman atigi 17 yoshda bo'lgan.

Mazkur sonni tayyorlashda yaqindan yordam ko'rsatganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Axborot xizmati rahbari J. Musayevga, Sirdaryo viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi uslubiy birlashma rahbari Komiljon HAYITBOYEVga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maksimal sonni tayyorlaganlar:

T. HAYITOV,
F. JALILOVA,
YU. ABDULLAYEV,
G. ORIFJONOVA,
B. RUSTAMOVA,
M. UBAYDULLAYEVA,
N. ABDULLAYEVA,
F. SHOYODGOROV,
Z. MAMATQULOVA.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 69670
Buyurtma N: J 1202